

TURIZM VA SPORT MASHG'ULOTLARINI TASHKILLASHTIRISH

N.Shomurzayeva, JDPI o'qituvchisi

Milliy qadriyatlarni tiklash ma'naviy ma'rifiy madaniyatimiz tarixini chuqur o'rganish-milliy iftixorimiz hamda hozirgi davr mafkurasini yoshlarga o'quvchilarga o'rgatishda sayohatlarning o'ziga yarasha o'rni va mohiyati bor.

Bu yo'lda O'zbekiston turizm kompaniyasi va turli xalqaro jamg'arma uyushmalarining faoliyati muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Sayohatlarning jismoniy va ma'naviy jihatdan o'ziga xos tarbiyaviy jihatlari mavjud. Ularning ilmiy pedagogik jihatidan o'rganish hozirgi kunning muhim tomonlaridan biridir. -Alpomish, va -Barchinoy maxsus testlarining sayohatlar amalda bajarish yo'llarii o'rganish maqsadida quyidagi vazifalarga muvofiq bo'ladi.

Turizm o'zining osonligi va qiziqarliligi bilan xalq ommasini o'ziga jalb qiladi, ya'ni turizm bilan shug'ullanishlari uchun kishilar o'zining yoshini, jinsini va jismoniy tayyorgarligini hisobga olganholda u yoki bu sport turi bilan shug'ullanishlari mumkin. Jismoniy tarbiya asosan uchta vazifani bajaradi(sog'lomlashtirish, bilim berish, tarbiyalash). Turizm esa to'rtinchi sport vazifasini bajaradi, ya'ni turizm hamma sport turlari uchun shug'ullanuv umum-jismoniy tayyorgarligini ta'minlabginaqolmay balki, turizm turlari barcha sportchi razryadlarini ham tayyorlaydi. Turizm orqali sayohatlarda jismoniy madaniyat shakllanadi. Toza havo tog' yon bag'irlarida yurish, erkin nafas olish, xalq o'yinlari bilan shug'ullanishlarimumkin. Nafaqat tog'larda balki, o'lkamizning turli releflarida ham sayohatlar o'tqazish mumkin. Bu yoshlarni ham jismoniy chiniqtirish, shuningdek o'zlikni anglash, yurtimiz tabiati, madaniyati, ma'naviyatiga qiziqishlarini oshirishga ham yordam beradi.

Jahon xalqlarining ijtimoiy-madaniy turmush tarzida sayohat,sayr juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Tabiatning go'zal gulshanlariga

sayr qilish, tog`larga sayr qilish, xushmanzara joylarda miriqib xordiq chiqarish, tarixiy va madaniy obidalar sirlarini o`rganish o`quvchilarga zavq-shavq baxsh etibgina qolmay salomatligini yaxshilash, jismoniy kamolotini rivojlantirish, ma`naviy olamini boyitish, dunyo qarashini kengaytirishga ham xizmat qiladi.

Turizm -o`zining yo`nalishi va faoliyat xarakteriga qarab quyidagilarga bo`linadi; aylanish(progulki), sayohat(ekskursiya), sayr(poxod), ekspeditsiyaga bo`linadi.

Aylanishlar –qisqa vaqtli oson, hamma uchun qulay bo`lgan tur bo`lib (piyoda aylanish, chang`ida aylanish, velosipedda aylanish va qayiqda aylanish mumkin. Bizning maqsadimiz kishi organizmini chiniqtirish va sog`lomlashtirish.

Sayohat - ekskursiya buning maqsadi jamoa bo`lib qandaydir muzeylarga, teatrlarga, tarixiy – yodgorliklarga, bolalarga sport inshootlariga o`yinlarga o`quv ilmiy va ma`naviy saviyasini oshirish yoki umummadaniyatini rivojlantirish bo`yicha tashkil qilinadi.

Sayrning maqsadi o`quvchilarning yoshlarning mehnatkashlarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish, o`lkani o`rganish. Jamoat foydali faoliyatini yaxshilash bo`yicha tashkil qilinib 3-4 kishidan 25 kishigacha bo`linishi mumkin.

Sayr piyoda, chang`i, velosipedda va qayiqda o`tkazilishi mumkin. Amaliyotda ko`pgina turistik sayrlar turi mavjud bo`lib, ular tayyorgarlik, shaxsiy va ommaviy targ`ibot sayrlariga bo`linadi.

Sayohatning turiga qarab va ularni sayohatga yoki safarga chiqadigan kungacha nazariy-amaliy mashg`ulot o`tkazish kerak. Yana bir guruh —Alpomish va -Barchinoy testlarini tayyorlab ularni sayyoh nishonini olishga qiziqtirish.

Oliy o`quv yurtlarida turistik harakatlarni yaxshi yo`lga qo`yish, uni rivojlantirishda pedagogik jamoalarning roli benihoya kattadir. O`qituvchilar o`z fanlari bo`yicha yaxshi bilim beribgina qolmasdan, balki ularning darsdan tashqari mashg`uloti kasb tanlash, sport va sayohatlar bilan shug`ullanishlariga yaqindan yordam berishadi.

O`quvchilarning turizm va o`lkashunoslik to`garaklariga jalb

qilish, sayohatlar uyushtirish va uni o`tkazishda geografiya, botanika, tarix hamda jismoniy tarbiya o`qituvchilari birinchi navbatda katta faollik ko`rsatadilar.

Sayohatlar davomida o`qituvchining ham, o`quvchilarning ham kayfiyati doimo bir xil bo`lavermaydi. Ba`zan turli bahslar, tortishuvlar, ranjishlar, hatto arazlashlar ham yuzaga keladi. Bu holning oldini olish uchun sayohat rahbari aybdorlarni topadi. Ularni koyiydi, ko`pchilik oldida tanbeh beradi. Natijada umummaqsad

yo`lida turistlar jamoasi o`z ahilligini to`la tiklaydi. Sayohat ko`ngilli o`tadi.

Sayohatlar orasida eng samarali va ommabop turlaridan biri tog` sayrlari hisoblanadi. Talabalar bilan tog`li joylarda sayrlarni tashkil qilish va o`tkazish, faol hordiq chiqarish hamda turistik texnika bo`yicha musobaqa o`tkazish sog`liqni saqlashga o`quvchilar tomonidan boshqa sport turidan qo`shimcha sport razryadini bajarishga yordam beradi, o`zlari yashab turgan viloyat, tuman mintaqasidagi tabiatni, o`lkani, hayvonat dunyosini, hamda ekologiyani saqlashga, o`quvchilarni ma`naviy – ma`rifiy tomondan tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, sportchilar uchun muhim bo`lgan kuch, chidamlilik va egiluvchanlik sifatlarini tarbiyalaydi, boshqa sport turlariga umum jismoniy tayyorgarligining asosiy vositasi sifatida xizmat qiladi.

Yurtimizda ham turizmni rivojlantirishning ilmiy nazariy asoslari ishlab chiqildi. Bugungi kunda turizm sohasi oldida turgan asosiy vazifa O`zbekistonning tabiiy iqlimi, rekratsion ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy –madaniysalohiyatini hisobga olgan holda ichki va xalqaro turizm ehtiyojini qondirishga yo`naltirilgan yuqori rentabelli turistik tarmoqlarni yaratishdan iborat. Xalqaro turizm bozoridan mustahkam o`rin olishi uchun O`zbekistonda sayyohlariga yuqori darajada qulayliklar yaratilishi, ularga xizmat ko`rsatishning barcha turlari bo`yicha standartlar tizimi, xavfsizligini ta`minlash kafolatlariniyuzaga keltirish kabi masalalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu tufayli yurtimizda turlitadbirlar o`tkazilmoqda.

Yoshlarni turizmga qiziqtirishda muqaddas qadamjolarining ham ahamiyati kattadir. Yurtimiz sayohat uchun juda qulay mamlakat. Qaysi fasl bo`lishidan qat`iy nazar yil 12 oy sayohatga boy va sayyohlar bilan gavjum. Respublikamizning qaysi hududiga bormang, bemalol sayohat uchun arziydigan maskanni topa olasiz. Bu esa yoshlar o`rtasida vatanparvarlik, yurtga muhabbat, ajdodlarga hurmat- ehtirom ruhida tarbiyalashga yordam beradi. Yoshlarni mustaqil fikrlashga, kelajak avlodga o`rnak bo`la olish hissi shakllanadi. Samarqanddagi –Imom Al-Buxoriy ziyoratgohini olasizmi, Ichan

Qalʼanimi, avliyolar maqbaralarinimi, –Goʻri Amirinimi, –Bibihonim madrasasinimi, –Ulugʻbek rasadxonasinimi, Registoninimi barchasi haligacha va bundan keyin ham dunyoni qoldirib kelmoqda.

Yurtimiz yoshlariga Oʻzbekiston turizmi statistikasi, sohadagi islohatlar, oʻzgarishlar, xorijdagi vatandoshlarning Oʻzbekistonga sayohat qilishga doir targʻiboti boʻyicha batafsil maʼlumot berib borilmoqda.

Qayd etilishicha, 2019-yili mobaynida xorijdagi 4000 dan ortiq yoshlar targʻibotga jalb etilgan. Ular bilan hamkorlikda 100 dan ortiq tadbir oʻtkazildi, 60000 dan ortiq targʻibot materiallari tarqatilgan.

Shu oʻrinda taʼkidlash joizki, Oʻzbekiston yoshlarni ichki turizmga jalb qilishda ulkan salohiyatga ega. Bugunga kelib mamlakatimizda jami 10915 koʻngilochar maskan va turistik obʼekt faoliyat koʻrsatmoqda. Oʻzbekistonda ichki turizmni rivojlantirish, sayyohlarni jalb etishdagi muhim ommaviy- madaniy koʻngilochar tadbirlar ahamiyatini hisobga olib, oʻtgan yildan boshlab har bir hududning oʻziga xosligidan kelib chiqqan holdagi muhim ommaviy tadbirlar oʻtkazilmoqda. Birgina 2020-yilda Respublika miqyosida 122 tadbir oʻtkazilgan.

Bir soʻz bilan aytganda, yoshlarni turizmga qiziqtirish ularni ham jismoniy chiniqtirish, ona vatanga mehru-muhabbat ruhida tarbiyalashga yordam beradi. Demak yoshlarni turizmga qiziqtirish har bir pedagogning ota-onaning vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Prezidentining –Oʻzbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamgʻarmasini tuzishtiʻgʻrisida // Xalqsoʻzi.-2002.-24-oktyabr.

2. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining –Oʻzbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamgʻarmasi faoliyatini tashkil etish toʻgʻrisida // Xalqsoʻzi.-2002.-31-oktyabr.

3. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining –Oʻzbekistonda jismoniy tarbiya sportini rivojlantirish.

